

BIR-BIRIMIZGA YORDAM BERAMIZ



Madina, menga hovlini tozalashga yordam bera olasani?



Albatta, ikkimiz bu ishni tezda bajaramiz. O'rtoqlarimiz bilan o'ynashga ham vaqtimiz qoladi.

Sher bilan sichqon



Sher daraxt tagida uxlab yotardi.

To'satdan sichqon uning ustidan yugurib o'tibdi. Uyg'onib ketgan sher uni tutib olibdi. Sichqon sherdan qo'yib yuborishini so'rab yolvoribdi:

– Agar meni qo'yib yuborsang, men ham senga yaxshilik qilaman.

Sher sichqonning gapini pisand qilmay kulibdi. Lekin baribir uni qo'yib yuboribdi.

Bir kuni ovchilar sherni tutib, arqon bilan daraxtga mahkam bog'labdi. Sherining azobdan o'kirayotganini eshitgan sichqon yordamga kelibdi.

Arqonni kemirib uzibdi va shunday debdi:

– Esingdami, senga ham yaxshilik qilaman, deganimda kulganding. Endi sichqonning ham yordami tegishi mumkinligini ko'rib turibsan.



1. Bu masalning bosh qahramonlari kimlar?
2. Sichqonning gapiga sher nima uchun kuldi?
3. Sher sichqonni nega qo'yib yubordi?
4. Sichqon yaxshilikni qay tarzda qaytardi?
5. Sichqon sherni qutqarganda u nimani his qildi?



Kimdir sizga yordam bersa, albatta, rahmat ayting.
Minnatdorchilik sizga yordam bergan odamni xursand qiladi.
Birov bergan yordamga e'tiborsiz bo'lish odobdan emas.



Ruhshunoslarning aytishicha, minnatdorchilik bildirish insonning kayfiyatini ko'taradi. Bu har ikki odam uchun ham foydalidir.

Minnatdorchilik bildirgan va uni eshitgan odam o'zini baxtli his qiladi, ruhi tetik bo'ladi, yaxshi uxlaydi.



Maqollarning davomini toping va ma'nosini tushuntiring.

Katta ishda

**Birikmagan
kuch – puch.**

**Mard – kurashda,
Do'st – tashvishda,**

**kichik yordam ham
qadrlidir.**

Birikkan kuch – kuch,

**dono g'azabda
sinalar.**



Kimgadir yordam berish boshqa odamlar uchun foydali ish qilishdir.

Ba'zi ishlar yordamga o'xshab ko'rinadi. Lekin o'ylab qaralsa, bu yordam emas, balki zarar ekanligi bilinadi. Masalan, Madinaning Akmalga uy ishlarini qilishda bergan yordami – yaxshi ish. Ammo sinfdoshiga uy vazifasini ko'chirtirish yaxshi ish emas.

Nima uchun yaxshi emasligini bilasizmi?



“Bir-birimizga yordam beramiz” mavzusida kollaj tuzing.





Iya, Sarvar,
guldonni sindirib
qo'yding-ku!

Endi nima
bo'ladi?



Yo'q, bunday
qilish yaxshi
emas! Rostini
aytish kerak.

Ozoda, kel,
yig'ishtirib olib,
bu vaziyatni
unutamiz!



Men yolg'on
gapirmayman! Undan
ko'ra ustozga o'zing
ayt.

Yo'q, iltimos, men
qilganimni aytna!



Ustoz, Ozoda guldonni
sindirib qo'yib, sizdan
yashirmoqchi bo'ldi.



Aldayapti! O'zing
sindirib, yana
"Ustozga aytma",
deb menga
yalinding-ku!

- 
1. Nima uchun Ozoda Sarvarning aytganini qilmadi?
 2. Siz Ozodaning o'rnida nima qilgan bo'lardingiz? Sarvarning o'rnida-chi?
 3. Sarvar qilgan ish to'g'rimi?
 4. Ozoda Sarvarga qanday yordam qilmoqchi bo'ldi?

Odamlarning yaxshisi – odamlarga foydalirog'idir.

Hadis



1-vaziyat

Mohira plastilindan filcha yasab o'tirgan edi. Komila kelib, "Ber, men yasab beraman. Chunki sendan zo'r yasayman!" – dedi. Mohira yo'q desa ham, plastilinni uning qo'lidan tortib oldi...



2-vaziyat

"Bolajonim, javondagi qutichani ololmayapman. Olib bergin", – deb iltimos qildi buvi. Nabira "Xo'p, hozir", – dedi-yu, telefondan ko'zini uzmedi. Oradan biroz vaqt o'tdi...

Nabira buvisining oldiga kirib, "Qaysi qutichani?" – deb so'radi. Buvi boshini chayqab, xo'rsinib qo'ydi. "Nega xafa bo'lasiz, mana, keldim-ku!" – deb hayron bo'ldi nabira.



1. Nima deb o'ylaysiz, bu voqealarning oxiri nima bilan tugadi?
2. Ikkala vaziyat ishtirokchilari o'zlarini qanday his qildilar?
3. Vaziyatlardagi qahramonlar yordam bera oldilarmi?



Yaqin kunlarda sizga kim yordam berganini eslab, rahmat aytib qo'ying.